KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

NOYABR, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
https://konferensiyalar.com

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil).– 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr

Mas’ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya
Mazkur to‘plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar” mavzusidagi XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o‘rin olgan bo‘lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag‘ishlangan.
Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta’lim o‘qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

FILOLOGIYA FANLARI

O‘ZBEK-INGLIZ BADIIY TARJIMASIDA MADANIY BELGILI BIRLIKLARNI BERISHDA METOD TANLASH MUAMMOSI

Maxmudjanova Maftuna Raximjon qizi
Namangan davlat universiteti amaliy xorijiy tillar kafedrasi 1-bosqich doktoranti,
Email: maxmudjanovamaftuna96@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-5016-1795
Tel: +998947007094
Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tezisda o‘zbek-ingliz badiiy tarjimasida madaniy belgili birliklarni berishda tarjima metodini tanlash muammosi nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilinadi. F. Shleyermaxer, Yu. Nayda, P. Nyumark va L. Venuti tasniflari asosida tarjimon tanlovining to‘rt darajasi - yo‘nalganlik, metod, madaniy strategiya va usul farqlanadi. Madaniy belgili birliklarni aniqlash uchun P. Nyumarkning madaniy so‘zlar tasnifi, ularni berish usullarini baholash uchun esa S. Vlaxov va S. Florinning realiyalarni berish usullari tasnifi asos qilib olinadi. O‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi tipologik tafovut tufayli grammatik transformatsiyalar ko‘p hollarda majburiy ekani, tarjimonning haqiqiy strategik tanlovi esa realiyalar, xos nomlar va murojaat shakllarini berishda namoyon bo‘lishi asoslanadi. Tadqiqot natijasida madaniy belgili birliklar tarjimasini tahlil qilishning to‘rt darajali modeli va xorijiylashtirish koeffitsiyenti taklif etiladi. Model Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romani inglizcha tarjimasini va Ch. Dikkensning «Mushkul zamonlar» romani o‘zbekcha tarjimasini qiyosiy tahlil qilishga mo‘ljallangan. Taklif etilgan yondashuv o‘zbek-ingliz va ingliz-o‘zbek tarjimalarida tarjimon strategiyasini tekshirib bo‘ladigan mezonlar asosida aniqlash imkonini beradi.

Kalit so’zlar: tarjima metodi, fuqarolashtirish, xorijiylashtirish, madaniy belgili birlik, realiya, tarjima usuli, o‘zbek-ingliz badiiy tarjimasi, xorijiylashtirish koeffitsiyenti.

THE PROBLEM OF METHOD CHOICE IN RENDERING CULTURE-SPECIFIC ITEMS IN UZBEK–ENGLISH LITERARY TRANSLATION

Maxmudjanova Maftuna Raximjon qizi
First-year doctoral student, Department of Applied Foreign Languages, Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation. This paper theoretically examines the problem of choosing a translation method when rendering culture-specific items in Uzbek–English literary translation. Drawing on the classifications of F. Schleiermacher, E. Nida, P. Newmark and L. Venuti, it distinguishes four levels of choice: orientation, method, cultural strategy and technique. Newmark’s categories of cultural words are used to identify culture-specific items, while S. Vlakhov and S. Florin’s classification of ways of rendering realia serves to evaluate the translator’s solutions. The paper argues that, owing to the typological distance between Uzbek and English, grammatical transformations are largely obligatory, whereas the translator’s strategic choice is revealed in the rendering of realia, proper names and forms of address. As a result, a four-level analytical model and a foreignization coefficient are proposed. The model is designed for a comparative analysis of the English translation of Cho‘lpon’s novel “Kecha va kunduz” and the Uzbek translation of Ch. Dickens’s “Hard Times”.

Keywords: translation method, domestication, foreignization, culture-specific item, realia, translation technique, Uzbek–English literary translation, foreignization coefficient.

DOI: https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i21/n07

Kirish

So‘nggi yillarda o‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi badiiy tarjima ikki yo‘nalishda ham faollashdi. Xususan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining 2017 [16], 2018 [15] va 2019-yillarda [14] nashr etilgan inglizcha tarjimalari mavjud. 2019-yilgi nashrda tarjimon M. Riz o‘zbek xalqining madaniyati, an’ana va urf-odatlarini tushuntiruvchi 400 dan ortiq izoh bergan [14]. Bu holat madaniy belgili birliklarni berish tarjimon oldidagi eng murakkab vazifalardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Bunday birliklarning berilishi tarjimonning umumiy metodiga bog‘liq: u yo o‘quvchini asliyat dunyosiga olib boradi, yo asliyatni o‘quvchi madaniyatiga moslashtiradi. Biroq tarjima nazariyasida metodlarning yagona tasnifi shakllanmagan, “metod”, “strategiya” va “usul” tushunchalari esa ko‘pincha aralashtirib qo‘llanadi [10; 498–512-b.]. O‘zbek tarjimashunosligida tarjima nazariyasining asosiy tushunchalari G‘. Salomov [4] va Q. Musayev [3] darsliklarida tizimli bayon etilgan. Ammo madaniy belgili birliklarni berish strategiyasini o‘lchash mezonlari hali yetarlicha ishlanmagan.

Mazkur tezisning maqsadi - o‘zbek-ingliz badiiy tarjimasida madaniy belgili birliklarni berishda metod tanlovini aniqlash mezonlarini belgilash va ularni tahlil qilish modelini taklif etishdan iborat.

Asosiy qism

Metod tanlovining eng qadimiy mezoni — tarjimonning asliyat va o‘quvchi o‘rtasidagi masofaga munosabati. XVII asrda J. Drayden tarjimani metafraza (so‘zma-so‘z o‘girish), parafraza (ma’noga ko‘ra tarjima) va imitatsiya (erkin taqlid) turlariga ajratgan [9; 17-b.]. F. Shleyermaxer esa tarjimon oldida faqat ikki yo‘l borligini ta’kidlagan: u yo o‘quvchini muallifga, yo muallifni o‘quvchiga yaqinlashtiradi [19; 43–63-b.]. L. Venuti bu qutblarni qayta talqin qilib, chet el matnini nishon tildagi madaniy qadriyatlarga etnosentrik tarzda moslashtiruvchi fuqarolashtirish metodini va chet el matnining lingvistik hamda madaniy farqini qayd etuvchi xorijiylashtirish metodini farqlaydi [21; 20-b.]. Olimning fikricha, fuqarolashtirish chet el matnining farqini nishon til o‘quvchisiga tushunarli matn bilan zo‘rlab almashtiradi [21; 18-b.].

Venuti ingliz tili dunyoda eng ko‘p tarjima qilinadigan, ammo unga eng kam tarjima qilinadigan til ekanini ham ta’kidlaydi [21; 12–14-b.]. Bu asimmetriya o‘zbek-ingliz juftligida strategiyalarning ijtimoiy ma’nosi tarjima yo‘nalishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi: o‘zbek asarini ingliz tiliga xorijiylashtirib tarjima qilish o‘zbek madaniyatini ko‘rinarli qiladi, ingliz asarini o‘zbek tiliga xorijiylashtirib tarjima qilish esa o‘zbek adabiy tilini yangi ifoda vositalari bilan boyitadi. Keyinroq Venuti tarjima strategiyasi tarkibiga tarjima uchun asar tanlash va uni tarjima qilish metodini ishlab chiqishni kiritadi [22; 240-b.]. Uning ta’rificha, xorijiylashtirish chet el matnini tanlash va tarjima metodini nishon tildagi hukmron madaniy qadriyatlar chetga surgan yo‘nalishda ishlab chiqishni nazarda tutadi [22; 242-b.]. Demak, xorijiylashtirish asar tanlash bosqichidayoq boshlanadi.

Yu. Nayda tarjimada formal va dinamik ekvivalentlikni ajratadi [12; 159-b.] va dinamik ekvivalentlikni asliyat xabarining “eng yaqin tabiiy ekvivalenti” sifatida ta’riflaydi [12; 166-b.]. Olimning fikricha, bunday tarjima o‘quvchini asliyatning madaniy qoliplarini tushunishga majburlamay, uni o‘z madaniyatidagi xatti-harakat me’yorlariga bog‘laydi [12; 159–160-b.]; demak, dinamik ekvivalentlik mohiyatan fuqarolashtirishga yaqin turadi. Masalan, mehmonni kutib olishda aytiladigan “Qadamingizga hasanot!” iborasini “Welcome!” deb berish dinamik

ekvivalentlikka, “Blessings upon your steps!” deb berish esa formal ekvivalentlikka yaqin yechimdir.

P. Nyumark esa sakkiz metoddan iborat shkala taklif etadi: manba tilga urg‘u beruvchi so‘zma-so‘z, harfiy, sodiq va semantik tarjima hamda nishon tilga urg‘u beruvchi adaptatsiya, erkin, idiomatik va kommunikativ tarjima [11; 45–47-b.]. Nyumark fikricha, faqat semantik va kommunikativ tarjima tarjimaning ikki asosiy maqsadi - aniqlik va ixchamlikni ta’minlay oladi [11; 47-b.]. Muhimi, olim metodni butun matnga, protsedurani esa gap va undan kichik birliklarga taalluqli deb hisoblaydi [11; 81-b.]. Bu farq butun matn darajasidagi tanlovni alohida birliklardagi yechimlardan ajratish imkonini beradi.

Funksional yondashuv metod tanlovini matn tipi va tarjima maqsadi bilan bog‘ladi. K. Rays matnlarni informativ, ekspressiv va operativ tiplarga ajratib, tarjima asliyatning ustun funksiyasini qanchalik bergani bilan baholanishi kerakligini ta’kidlaydi [18; 108–109-b.] va har bir tip uchun alohida tarjima metodini asoslaydi [17; 20-b.]. Badiiy asar ekspressiv tipga mansub bo‘lgani uchun unda muallifga yo‘naltirilgan metod ustuvor bo‘ladi. K. Nord esa ikki asosiy tarjima turini - hujjatli va instrumental tarjimani ajratadi [13; 47-b.]. Uning tasnifida hujjatli tarjimaning filologik (izohli) va ekzotiklashtiruvchi ko‘rinishlari, instrumental tarjimaning esa ekvifunksional, geterofunksional va gomologik ko‘rinishlari farqlanadi [13; 47–52-b.]. Izohli va ekzotiklashtiruvchi tarjima xorijiylashtirishga, ekvifunksional tarjima esa fuqarolashtirishga yaqin turadi; M. Rizning 400 dan ortiq izohli tarjimasi birinchi yo‘lga misol bo‘la oladi.

O‘zbek-ingliz tillar juftligida metod va usul farqi ayniqsa muhim. J.-P. Vine va J. Darbelne so‘zma-so‘z tarjima ko‘proq qardosh tillar o‘rtasida uchrashini, aks holda tarjimon transpozitsiya, modulyatsiya, ekvivalentlik va adaptatsiya kabi bilvosita usullarga murojaat qilishini ko‘rsatgan [23; 84–93-b.]. Mualliflar transpozitsiyaning majburiy va ixtiyoriy turlarini ham farqlaydi: birinchisi til tizimi taqozosi, ikkinchisi tarjimonning uslubiy tanlovi bilan bog‘liq [23; 84–93-b.]. J. Ketford esa bunday o‘zgarishlarni “tarjima siljishlari” deb atab, ularni manba tildan nishon tilga o‘tishda formal muvofiqlikdan chetlashish sifatida ta’riflaydi [6; 73-b.]. Agglyutinativ o‘zbek tili bilan analitik ingliz tili o‘rtasidagi artikl, so‘z tartibi va jins kategoriyasidagi tafovutlar ko‘plab o‘zgarishlarni majburiy qiladi. Masalan, “Kitobimni o‘qidingmi?” gapi “Have you read my book?” shaklida beriladi: egalik va tushum kelishigi qo‘shimchalari egalik olmoshi va so‘z tartibi bilan almashadi. Xuddi shuningdek, o‘zbek tilidagi “ekan” shakli bildiradigan ma’no ingliz tilida grammatik emas, leksik vosita bilan beriladi: “U kelgan ekan” - “Apparently, he had come”. V.N. Komissarov ham transformatsiyalarni leksik, grammatik va kompleks turlarga ajratadi [2; 172-b.]. Shu sababli tarjimonning haqiqiy strategik tanlovini grammatik transformatsiyalardan emas, madaniy belgili birliklarni berish usullaridan izlash kerak.

Madaniy belgili birliklarni aniqlashda P. Nyumark tasnifi qulay. Olim madaniy so‘zlarni ekologiya, moddiy madaniyat, ijtimoiy madaniyat, tashkilotlar va urf-odatlar hamda imo-ishora va odatlar guruhlariga ajratadi [11; 95-b.]. O‘zbek materialida bularga “saksovul”, “osh”, “do‘ppi”, “hashar”, “mahalla” kabi so‘zlar va qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib salomlashish odati misol bo‘ladi.

Ch. Dikkensning “Hard Times” romani ham bunday birliklarga boy. Unda Gradgrind va M’Choakumchild [8; 4–7-b.], Bounderby [8; 12-b.] kabi ma’noli ismlar, xayoliy Coketown shahri nomi [8; 18-b.], fabrika ishchilarini bildiruvchi “Hands” so‘zi va Stiven Blekpul nutqidagi sheva

unsurlari [8; 49–53-b.] uchraydi. Sirk egasi Slirining chuchuk tili (“People mutht be amuthed”) [8; 23–32-b.], Mr va Mrs kabi murojaat shakllari [8; 12, 33-b.] hamda “Old Hell Shaft” kabi joy nomlari [8; 207–215-b.] ham tarjimondan alohida qaror talab qiladi. Romanning uch kitobi “Sowing”, “Reaping” va “Garnering” deb nomlangan [8]; bu nomlar “nima eksang, shuni o‘rasan” mazmunidagi Injil ibratiga ishora qiladi. Ma’noli ismlarni transliteratsiya qilish ularning ma’no yukini yo‘qotadi, tarjima qilish esa milliy koloritni buzadi. Izohli transliteratsiya bu ikki talab o‘rtasidagi murosa yo‘lidir.

Bunday birliklarni berish usullarini baholashda S. Vlaxov va S. Florin tasnifi tayanch bo‘ladi. Ular realiyalarni berishning ikki asosiy yo‘li - transkripsiya va tarjimani farqlab, tarjima doirasida neologizm (kalka, yarim kalka, o‘zlashtirish, semantik neologizm), taxminiy tarjima (tur va jins munosabatiga asoslangan muvofiqlik, funksional analog, tasviriy izoh) hamda kontekstual tarjimani ajratadi [1]. P. Nyumark ham madaniy so‘zlar uchun ko‘chirish, madaniy ekvivalent, neytrallashtirish, tabiiylashtirish, komponent tahlili va juftlik kabi protseduralarni ko‘rsatadi [11; 103-b.]. E. Chestermen esa pragmatik strategiyalar qatorida “madaniy filtrlash”ni ajratadi. U nishon madaniyat normalariga moslashtirishni, ya’ni mohiyatan fuqarolashtirishni anglatadi [7; 92–112-b.]. Transkripsiya, kalka va izohli ko‘chirish xorijiylashtiruvchi qutbga, funksional analog, madaniy ekvivalent va kontekstual tarjima esa fuqarolashtiruvchi qutbga yaqin turadi. Masalan, “choyxona” so‘zini inglizchada “chaykhana” shaklida berish xorijiylashtirish, “teahouse” deb berish esa fuqarolashtirish yo‘lidir. Murojaat shakllari ham shu mezon bilan baholanadi: “Otabek aka” birligini “Otabek-aka” deb ko‘chirib, izohda ma’nosini berish xorijiylashtirish, “Brother Otabek” deb berish kalka orqali qisman xorijiylashtirish, shunchaki “Otabek” deb berish esa fuqarolashtirishdir.

Xorijiylashtirishning ham chegarasi bor. A. Berman badiiy nasr tarjimasida asliyatni deformatsiyaga uchratadigan o‘n ikki tendensiyani, jumladan ratsionalizatsiya, oydinlashtirish, kengaytirish va “olijanoblashtirish”ni tavsiflaydi [5; 284–297-b.]. Olim xorijdagi begonani o‘z yurtimizdagi begonaga aylantiradigan ekzotiklashtirish asliyatni kulgili holga solib qo‘yishidan ogohlantiradi [5; 294-b.]. G. Turi esa tarjimonning boshlang‘ich tanlovini manba normalariga bo‘ysunish (adekvatlik) va nishon madaniyat normalariga bo‘ysunish (maqbullik) o‘rtasidagi tanlov sifatida tavsiflaydi [20; 56–57-b.]. Turi preliminar normalar qatorida tarjimaning bevosita yoki vositachi til orqali amalga oshirilishiga munosabatni ham ajratadi [20; 56–59-b.], shuning uchun tahlil qilinayotgan tarjima qaysi tildan qilinganini aniqlash ham zarur.

Yuqoridagilarga tayanib, madaniy belgili birliklar tarjimasini tahlil qilishning to‘rt darajali modeli taklif etiladi. Birinchi daraja - tarjimaning umumiy yo‘nalishi (adekvatlik yoki maqbullik). Ikkinchi daraja - butun matn bo‘yicha metod (P. Nyumark shkalasi). Uchinchi daraja - madaniy belgili birliklarga nisbatan strategiya (xorijiylashtirish yoki fuqarolashtirish). To‘rtinchi daraja - mikrobirlik darajasidagi usul yoki transformatsiya. Bu darajada L. Molina va A. Urtado Albir taklif etgan o‘n sakkiz usuldan foydalanish mumkin [10; 498–512-b.]. Tahlil pastdan yuqoriga qarab olib boriladi: avval har bir birlikdagi usul aniqlanadi, so‘ngra ularning taqsimotiga ko‘ra strategiya va metod haqida xulosa chiqariladi. Bu yondashuv L. Molina va A. Urtado Albirning usullar tahlili tarjimonning umumiy metodik tanlovi haqida aniq ma’lumot beradi, degan fikriga mos keladi [10; 499-b.].

Strategiyani miqdoriy baholash uchun xorijiylashtirish koeffitsiyenti taklif etiladi: $K_x = N_x / N$, bunda N_x - xorijiylashtiruvchi yechimlar soni, N - tahlil qilingan madaniy belgili birliklarning umumiy soni. Koeffitsiyent 0,5 dan yuqori bo‘lsa, tarjimada xorijiylashtirish, past

bo‘lsa, fuqarolashtirish ustun deb hisoblanadi. Masalan, faraz qilaylik, tahlil qilingan 120 ta birlikdan 78 tasi transkripsiya, kalka yoki izohli ko‘chirish yo‘li bilan berilgan bo‘lsa, K_x = 78 / 120 = 0,65 bo‘ladi va tarjimada xorijiylashtirish ustun deb baholanadi.

Xulosa

O‘zbek-ingliz badiiy tarjimasida tarjimonning metod tanlovi eng aniq ko‘rinadigan joy - madaniy belgili birliklardir. Tillarning tipologik tafovuti grammatik transformatsiyalarni ko‘p hollarda majburiy qiladi, shuning uchun ular strategiyaning ishonchli ko‘rsatkichi bo‘la olmaydi. P. Nyumarkning madaniy so‘zlar tasnifi hamda S. Vlaxov va S. Florinning realiyalarni berish usullari tasnifiga tayangan to‘rt darajali model va xorijiylashtirish koeffitsiyenti tarjimon strategiyasini tekshirib bo‘ladigan mezonlar asosida aniqlash imkonini beradi. Taklif etilgan yondashuv o‘zbek-ingliz va ingliz-o‘zbek yo‘nalishidagi tarjimalarni bir xil mezonlar bilan qiyoslashga xizmat qiladi va ularning natijalarini o‘zaro solishtirish uchun asos yaratadi. Natijalar tarjimonlar tayyorlashda hamda badiiy tarjimalarni tahrir qilishda madaniy belgili birliklarga nisbatan izchil strategiya tanlash uchun amaliy tavsiya bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980. – 343 с.
2. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
3. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари: дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ФА «Фан» нашриёти, 2005. – 352 б.
4. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 232 б.
5. Berman A. Translation and the Trials of the Foreign / transl. by L. Venuti // The Translation Studies Reader / ed. by L. Venuti. – London; New York: Routledge, 2000. – P. 284–297.
6. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. – London: Oxford University Press, 1965.
7. Chesterman A. Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1997.
8. Dickens Ch. Hard Times. – Ware: Wordsworth Editions, 2000.
9. Dryden J. On Translation // Theories of Translation: An Anthology of Essays from Dryden to Derrida / ed. by R. Schulte, J. Biguenet. – Chicago; London: University of Chicago Press, 1992. – P. 17–31.
10. Molina L., Hurtado Albir A. Translation Techniques Revisited: A Dynamic and Functionalist Approach // Meta. – 2002. – Vol. 47, № 4. – P. 498–512.
11. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York; London: Prentice Hall, 1988.
12. Nida E.A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. – Leiden: E.J. Brill, 1964.
13. Nord C. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. – Manchester: St. Jerome, 1997.
14. O‘zbekistonning AQShdagi elchixonasida «O‘tkan kunlar» romanining inglizcha nashri taqdim qilindi [Elektron resurs] // Kun.uz. – 2019. – 30 dekabr. – URL: https://kun.uz/news/2019/12/30/ozbekistonning-aqshdagi-elchixonasida-otkan-kunlar-romanining-inglizcha-nashri-taqdim-qilindi (murojaat sanasi: 03.11.2026).
15. Qadiri A. Days Gone By / transl. by C. Ermakova. – Paris: Nouveau Monde éditions, 2018.
16. Qodiriy A. The Days Gone By / transl. by I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A. Khamidov. – Tashkent: Mashhur-Press, 2017.

17. Reiß K. Texttyp und Übersetzungsmethode: Der operative Text. – Kronberg/Ts.: Scriptor, 1976. – 146 S.
18. Reiss K. Text Types, Translation Types and Translation Assessment / transl. by A. Chesterman // Readings in Translation Theory / ed. by A. Chesterman. – Helsinki: Oy Finn Lectura, 1989. – P. 105–115.
19. Schleiermacher F. On the Different Methods of Translating / transl. by S. Bernofsky // The Translation Studies Reader / ed. by L. Venuti. – 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2012. – P. 43–63.
20. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1995.
21. Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. – London; New York: Routledge, 1995.
22. Venuti L. Strategies of translation // Routledge Encyclopedia of Translation Studies / ed. by M. Baker. – London; New York: Routledge, 1998. – P. 240–244.
23. Vinay J.-P., Darbelnet J. A Methodology for Translation / transl. by J.C. Sager, M.-J. Hamel // The Translation Studies Reader / ed. by L. Venuti. – London; New York: Routledge, 2000. – P. 84–93.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.
2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil). – 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.